

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH ASOSIDA TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna**

b.f.f.d., dotsent

Farg‘ona davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Ta‘lim tizimida pedagogning darsdan tashqari qo‘shimcha ravishda o‘tadigan mashg‘ulotlari o‘qitishning amaliy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi talabalarda mutaxassislik fanlari haqida bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularni shu fanlarga doir bilimlarini chuqurlashtirishga, mustahkamlashga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** talaba, pedagog, malaka, kasbiy ko‘nikma, amaliy ish, nazariy bilim, amaliyot.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llash asosida talabalarning qiziquvchanligi, teran fikrliligi, mulohaza yurita olishligi va faolligini oshirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta‘kidlanadi.

Albatta, o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi dars mashg‘ulotlarni turli xil, munozarali, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib keladi va o‘quv materiallarini o‘quvchilar tomonidan samarali darajada o‘zlashtirishiga keng qamrovli imkoniyatlar yaratiladi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etishda talabaning asosiy o‘rinda turishi, ya‘ni o‘quvchi-talaba ta‘lim markazida bo‘lishi lozim, lekin afsuski bizda esa hali-hanuz buning aksi, ya‘ni bosh rolda o‘qituvchi bo‘lish holatlari kuzatilmoqda. U axborot berish, darsni tezroq o‘tish, o‘quvchi-talabalarni tezroq o‘qitish bilan ovora, ammo o‘quvchi-talabalarning qiziqishlari, bilim darajasi, yangiliklarni qabul qilishi, tushunishi turlichadir. Pedagogning vazifasi esa bularni hisobga olish, qanday bo‘lsa-da har bir talabani darsga etiborini jalb qilishi va faol ishtirok etishini tashkillashi lozim.

Dars mashg‘ulotlari jarayonida o‘qituvchi talabalarga o‘qitishdan o‘rganishga, bilim berishdan bilimlarni mustaqil egallashga ko‘mak berishi zarur. O‘qituvchi Darsni tashkillashda dars ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlariga bog‘liq bo‘lib, o‘quv materiali xususiyatlari, ta‘lim usullari, o‘quv imkoniyatlari uning mahorati va tajribasiga bog‘liqdir. Bularning barchasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchi boshqaruvchi sifatida o‘quvchilar bilan birgalikda harakatlanadi. Huddi mana shu jarayon intensiv amalga oshirilsagina, o‘quv jarayonining samaradorligi ta‘minlanadi. O‘quvchi-talabalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimlarni puxta va

chuqur o'zlashtirish, zarur bilim, ko'nikma va malakalar, kuzatuvchanlik, tafakkur va bog'lanishli nutq, xotira va ijodiy tasavvurlarni tarbiyalashga imkoniyat yaratiladi. O'qituvchi ham ijodkorlikda har bir o'quvchining bilim va qobiliyati, yakka tartibda intilish va ehtiyojlarini aniqlaydi. Bunday holatda o'qituvchi faqat «baholovchi» emas, balki yangi bilim yetkazuvchi manbaga aylanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan avval tashkil qilinadigan ta'lim turlarini aniq ravishda aniqlab olish, to'g'ri tashkil qilishda ixtiyoriy ravishda shakllanayotgan bilim, ko'nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli, qo'llanilayotgan usullar va metodik ko'rsatmalarning xususiyatiga bog'liq.

Masalan, o'quvchi-talabalarda qiziqtirish, diqqatini jamlash, fikrlash jarayonini tezlatish va oson o'zlashtirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'quv materiallariga tanqidiy yondashish ko'nikmasini shakllantirish hamda mahsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularni rivojlantirish uchun darsning noan'anaviy shakllari bilan birgalikda darslarda ta'lim beruvchi tomonidan "Tushunchalar tahlili", "Klaster", "Aqliy hujum", "Blist", "Bumerang", "Yelpig'ich", "Zig-zag", "Charxpalak", "Agar men" kabi metodlar yordamida ilg'or texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida dars mashg'ulotlari uchun qo'llanilgan usullarning bir nechtasini keltirib o'tamiz.

**"Tarmoqlar" (Klaster) usuli** - fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrini erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashiga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

**"Bumerang" usuli** - mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rovida bo'lishi, kerakli ballni to'plashga imkoniyat beradi.

**"Bumerang" texnologiyasi** - tanqidiy fikrlash, mantiqiy shakllantirishga imkoniyat yaratadi xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

- jamoa bilan ishlash mahorati,
- muomalalik, xushfe'llik,
- ko'nikuvchanlik,
- o'zgalar fikriga xurmat,
- faollik,
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish,
- ishga ijodiy yondoshish,
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish va o'zini xolis baholash.

Pedagogik texnologiyalarni boshqarish o'zida ikki yo'nalishni mujassamlashtiradi:

- a). Faoliyatni boshqarish.
- b). O'quvchilar jamoasini boshqarish.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan texnologiyalardan barcha ta'lim muassasalarida samarali foydalanish kutilgan darajada emas, chunki ayni vaqtda yuqorida sanab o'tilgan pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati, maqsadi, mexanizmini barcha pedagoglar to'laqonli biladi, ularni ta'lim jarayoniga samarali tarzda tatbiq etadi, deyish qiyin. Ayni shu masala zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish borasidagi muammolardan biridir.

Ta'lim jarayonida darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'tish va ulardan yuqorida keltirilgan tartibda foydalanish dars samaradorligini oshirishda yaxshi natijalar beradi, chunki mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchilar uchun qulaylik tug'diradi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, mas'uliyatini oshiradi, eng sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham ilhomlantirgan holda harakatlantiradi.

O'qituvchi-pedagog talabani o'zi bilan teng ishtirokchi, hamkor sifatida ko'rishi, bola fikrlarini hurmat qilishi, eshitishi, ular bilan hisoblashishi, o'z fikrini hukm sifatida emas, o'quvchilar fikri bilan teng darajada o'rta tashlashi, ya'ni hamkorlik, hamdardlik asosida dars samaradorligining oshirilishi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, munosabat bildirish ko'nikmalarining shakllanishi bilan birga o'zaro fikr almashishlari (axborot olish, saqlash, qayta ishlash va uzatish)ga sharoit yaratadi. O'zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda, guruhlarda, hamkorlik va hamjihatlikda yechimini kutayotgan masalalarga, muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga astoydil intiladi. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar. Bir-birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Oqibatda mavzu o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi, yangi mavzuni o'zlashtirishda ham tanqidiy, tahliliy yondasha oladilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, o'quv jarayonini yuqorida ta'kidlangan pedagogik xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etish dars samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi, kutilgan natijaning qo'lga kiritilishini kafolatlaydi. Umumta'lim tizimida pedagogik texnologiyalardan amaliy foydalanishning samarali bo'lishi uchun uning metodologiyasini ishlab chiqish va aniq texnologiyalarini yaratish zarur. Umuman, pedagogik texnologiyadan dars jarayonida oqilona foydalanilsa, o'quvchilarning bilimlarini yuqori darajada rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Darsdan tashqari yakka tartibdagi ishlarning to'liq bajarilishi uchun talabalarning faolligi, ularga aniq topshiriq berish va uning bajarilishini o'qituvchi nazorat qilib turishi muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirzayev U.B. "Tuproqshunoslik" kursini o'qitishda pedagogik texnologiyalar. – F.: 2023. 126 b.
2. Yo'ldoshev J.G., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. **Interfaol ta'lim sifat kafolati. (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim).** – T.: 2008 y. –11-b. 4. **Mallaboyev A. O'quvchilar bilan individual munosabatda bo'lishning psixologik asoslari. // Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. – Andijon, 1996. -27-b.**
3. **Ochilov F. Pedagogik texnologiyalar asosida tabiatshunoslik darslari samaradorligini oshirish. //«Tafakkur sarchashmalari» (Magistrantlarning ilmiy-metodik maqolalari to'plami).** – T.: 2013. -219-b.
4. Абдухакимова, Х.А. (2021). Шохимардонсой конус ёйилмаси сугориладиган тупроқларининг геохимёси. Б.ф.ф.д. дисс. автореф. Ф., 42.
5. Isag'aliyev M., Abduxakimova X., Mirzajonov I. Sug 'oriladigan o 'tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari //Fanning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU. – 2018. – С. 84-86.
6. Абдухакимова, Х.А. **Тупроқшunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish //“O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali. 18-son. 2023. 278-281 b.**